

FIZIOLOGIK HOLAT FE'LLARINING INGLIZCHA-O'ZBEKCHA TARJIMA LUG'ATLARDAGI TALQINI

Fozilov Pulat Shamilovich,
mustaqil tadqiqotchi
ToshDO'TAU

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi fiziologik holat fe'llarining tarjima lug'atlardagi talqini masalalari yoritilgan. Ikki tarjima lug'atlarida mazkur fe'llarni aks ettirishdagi leksikografik tamoyillar, so'zlarni izohlash prinsiplari, leksik-semantik tizimi, grammatik tavsiflari qiyosan o'rganilgan.

Kalit so'zlar. *amaliy leksikografiya, metaleksikografiya, leksikografik tamoyil, diaxron va sinxron aspekt, leksik va fonetik ko'rsatkich, grammatik tavsif, leksik-semantik tizim, semantik ekvivalent.*

Ikki tilli leksikografik manbalar ming yillar ilgari paydo bo'lganligiga qaramay, uning nazariy jihatlarini o'rganadigan soha – bilingual metaleksikografiya, ya'ni nazariy tarjima leksikografiyasi yaqin o'tmishda shakllandi. Tarjima lug'atining asosiy vazifasi foydalanuvchining til bilish darajasini oshirish, unda mavjud bilim bazasini leksik jihatdan boyitishdir [1:147-159]. Bunday lug'atlar birlamchi til o'rganish manbasi bo'lmasa ham, tilni o'zlashtirish jarayonda asosiy vositalardan biriga aylanadi. Bugungi kunda tarjima lug'atlari asosan ikki xil shaklda tuziladi. Birinchisi alifbo tartibi asosidagi universal lug'at bo'lsa, ikkinchisi bir yirik ma'no yoki grammatik turni qamraydigan ideografik lug'atlardir. Til o'rganuvchilar ko'p hollarda birinchi turdagi manbalarni ma'qul ko'rishadi. Yirik hajmdagi lug'at tilni chuqur o'rganuvchilar ehtiyojini qondirsa, tor qamrovli manba tilni eng zaruriy leksik bazani shakllantiradi. Inglizcha-o'zbekcha tarjima lug'atlari aksariyat hollarda alifbo tartibida, universal qamrovga ega bo'ladi. Ularning strukturasi leksema, grammatik parametr, transkripsiya va tarjima ekvivalenti elementlaridan tuzilgan bo'ladi. Ba'zan tarjimalar misollar bilan dalillanishi mumkin. Fe'l tarjimasiga bag'ishlangan lug'at maqolalarda misollar fe'l+predlog ma'nolarini ochib berish uchun kiritiladi. Shuningdek, so'zlarning yasama shakllariga ham e'tibor qaratiladi. Masalan, eng yirik tarjima lug'atlaridan hisoblangan Sh.Bo'tayev, A.Irisqulovlar hammuallifligidagi manba leksemalarni quyidagicha leksikografik talqin qiladi [2:217]:

breath [bre(-)] n nafas; **to draw** ~ nafas olmoq;

to draw the first ~ tug'ilmoq; dunyoga kelmoq.

breathe [bri:d] v nafas chiqarmoq; nafas olmoq.

to ~ again – yengillik sezmoq.

Breath va *to breathe* leksemasi eng asosiy fiziologik holat, *nafas olishni* ifodalaydi. Shuning uchun bu holat fe'lining predlog bilan uyg'unlashuvidan hosil bo'lgan ma'no ham e'tiborga olinadi. Shunday qilib, o'quvchi bu so'zlar *nafas olmoq, tug'ilmoq, nafas chiqarmoq* hamda *yengillik sezmoq* holatlarini anglatishini biladi. So'zning turli birikuvdagi barcha ma'nolari aynan fiziologik holatni ifodalashi e'tiborga loyiq.

Xuddi shu lug'atda boshqa fiziologik holat fe'llari predloglar bilan turg'un birikma hosil qilmagani sababli faqat sinonimli tarjimalar bilan berilgan [2; 66]:

exhale [eks'heil] v 1) nafas chiqarmoq; 2) bug'lanmoq, bug'ga aylanmoq.

inhale [in'heil] v nafas olmoq, ichiga tortmoq.

Exhale so'zining aynan o'zidek bir so'z qolipidagi ekvivalenti yo'q, shuning uchun birikma shaklida tarjima qilingan, *inhale* ham shu sababdan tarjimada birikmaga aylangan. *Exhale* so'zining mexanik semasi bug'lanish bilan bog'liq. Shu o'rinda ikki ma'no voqelanishini ko'rsatadigan misol qo'shish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Fiziologik holat fe'llarining bir ulushi egalik semasi atrofida jamlanadi. Ularning izohida shu borlik, egalik semalari yaqqol aks etishi kerak. Tarjimada esa ma'nodoshlarning farqlariga urg'u berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, *to own, to possess, to have* va *to occupy* ma'no jihatdan bir-biriga yaqin. Ular tarjima lug'atda quyidagicha talqin qilingan [2;128].

have [hæv] v (had; had) ega bo'lmoq; **to ~ a walk** sayr qilmoq; **to ~ a dinner** tushlik qilmoq; **to ~ a pleasant time** vaqtni yaxshi o'tkazmoq; **to ~ a headache** boshi og'rimoq.

own [əun] 1. v egallamoq, ega bo'lmoq; 2. a o'ziniki.

possess [pə'zes] v 1) egalik qilmoq, ega bo'lmoq, qo'lga kiritmoq, zabt etmoq; 2) bosmoq (*biror hissiyot, tuyg'u haqida*); **you are surely ~ed** siz aqldan ozibsiz.

To have bu ma'nodoshlar ichida nutqda eng faol qo'llanadigan biridir. Zero, uning ma'no ko'lami faqat egalik bilan cheklanmaydi. Bu ma'nolar esa nutqiy konteksta to'liq voqelanadi. Shu kontekstlarga ko'ra *to have* fe'li egalik ma'nosidan tashqari *tanovvul qilmoq, vaqt o'tkizmoq* kabi sof nutqiy semalar kasb etadi. Bu so'zning ma'nodoshi esa *to own* – ma'nosi bir sema doirasida cheklangan. Shuning

uchun yana kontekstual birikma misollarni ilova qilish shart emas. *To possess* esa sof lug'aviy polisemiyanı namoyon qiladi. Uning *aqldan ozmoq, egalik qilmoq, hissiyotni bosmoq* ma'nolari bir-biridan keskin farq qiladi. Lekin shu farqlar misollar bilan yaqqol dalillanishi lozim.

Tarjima lug'atlarini tuzishda mualliflar qator muammolarga duch kelishadi. Birinchi muammo asosan ikki har xil tizimdagi tillar orasida bo'lib, ularda bir-biriga semantik nomutanosib so'zlar ko'p uchraydi. Ularni tarjima qilish imkonsiz, ya'ni ma'nolarni to'liq saqlab qolib bo'lmaydi. Tilshunoslikda *lingvomadaniy realiya* deb ataluvchi betakror leksik guruh faqat izoh shaklida o'girilishi mumkin. Biroq realiyalar faqat nomlar sirasida bo'ladi, harakat yoki holat ichida realiya uchramaydi. Shunday ekan, bu vajni fiziologik holat fe'llari talqinidagi muammo sifatida sanamaymiz.

**freeze [fri:z] v. muzlab qolmoq;
sovuq yemoq, sovqotmoq,
lo'ngmoq; muzlatmoq, yaxlat-
moq, muzda qolmoq, to'ndir-
moq. freezer n. muzlatgich,
muzxona.**

Lug'at talqinidagi yana bir muammo polisemik so'zlardir. Fe'llarning aksariyati ko'p ma'nolarga ega. Demak, ular talqini barcha asosiy ma'nolar tarjiması bilan boyitish lozim. Bunday semalar kontekstual bo'lgani uchun ularni misollar bilan dalillash talab etiladi. Masalan, tarjima lug'atlarida ko'p ma'noli fiziologik holat kontekstual jihatdan polisemik bo'lganda shunchaki ma'nolarni ajratmasdan bir guruhda sanab o'tish holati mavjud. Bu esa lug'atning amaliy foydasini susaytiradi, o'quvchini chalg'itadi [3;88]:

Navbatdagi muammo tillar orasidagi madaniy farqqa borib taqaladi. Qardosh tillar kesimida bunday masalani uchratmaymiz. Biroq boshqa tillar, xususan, ingliz tili bilan tafovutlarimiz ko'p. Bu esa, o'z navbatida, lug'atchilar uchun talqin mushkulotini keltirib chiqadi. Fiziologik holat *inson tanasida kechuvchi tabiiy jarayonni, tana tabiiy shamoyili va holini* bildiradi. Insonlarning bu jihati esa millat yoki madaniyatga qarab farqlanmaydi. Demak, ayni leksik-semantik guruh talqinida madaniy muammolarni chiqarib tashlash mumkin.

Maxsus atamalar ham muammoli vaziyat. Atamalar talqini barcha lug'atlar uchun standart bo'lishi lozim. Nostandart yondashuv aynan atama borasida kuzatilsa, bu lug'atning originalligini emas, ilmiy kompetensiyasi sust ekanini anglatadi. Bundan tashqari, til doim taraqqiy etuvchi jonli organizm bo'lganligi

sabab, leksik sath ham doim o'zgarishda bo'ladi. So'zlar vaqt davomida yangi ma'nolar kasb etishi, mavjud ma'nolari eskirishi tabiiy. Bu kabi muammoni hal qilish uchun lug'at tuzuvchilari har ikki tilni mukammal egallagan, milliy-madaniy kontekstini to'liq anglagan bo'lishi lozim. Muayyan o'quvchilar auditoriyasiga lug'atni moslash ham dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Dolzarb muammolardan yana biri tarjimada sinonimlarga murojaat etishdan kelib chiqadi. Ko'pincha talqinda bir necha sinonimlarni sanab o'tib hech qanday misollar bilan mustahkamlamaslik holatlari mavjud. Shunda o'quvchi sinonimlardan qaysi biri asos leksemaga yaqinligini bilolmaydi, har birining o'zaro farqi bor, nutqda qo'llash o'ziga xosligi mavjud. Shunday ekan, sinonimlarni berishda aniq tamoyillarni shakllantirish muhim. So'zlar ma'no yaqinligiga ko'ra tartiblanishi, har biri qisqa birikma shaklida bo'lsa ham misol bilan dalillash zarurdir.

Til ijtimoiy hodisa ekanligi uning iqtisodiy, siyosiy, tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq ekanida ko'zga tashlanadi. Global dunyoda xalqaro aloqalarning uzviylashib, jadallashib borayotgani esa tarjima lug'atlariga ehtiyoj kuchaytirmoqda. Ularni onlayn platformaga o'tkazish talab etilmoqda. Sun'iy intellektga tilni sintez qilish, onlayn muharrir, tarjimon dasturlari uchun ham keng qamrovli mukammal tarjima lug'atlari asos qilib olinadi.

Leksikografik manba so'zlarning grammatik, semantik, uslubiy xususiyatlarini aniq ko'rsatishi, ularning nutqiy parametrlarini o'z ichiga olishi shart. Jarayon so'zlarni tizimlashtirishdan boshlanadi. Ma'no va grammatik ko'rsatkuchlar dolzarbligiga ko'ra tartiblanadi. Misollar so'zning uslubiy xarakterini ham ko'rsatishi kerak. Murakkab, o'xshashi yo'q so'zlar esa izohli tarjima qilinishi ham mumkin. Tarjima lug'atlari mavzulashtirilgan yoki grammatik jihatga urg'u beradigan turlarga ajraladi. Fiziologik holat fe'llarini talqin qilishda mana shu talablarga rioya etib mukammal mavzulashtirilgan lug'at yaratish mumkin. Bunday lug'at tarkibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Leksema
2. Talaffuz me'yori
3. Grammatik ko'rsatkichlar
4. Tarjima (zarurat bo'lsa izohli tarjima)
5. Birikmalar
6. Gap shaklidagi misollar
7. Ma'nodoshlar
8. Uslubiy va chastota ko'rsatlichlari.

COUGH [kɒf] v. yo'talmoq: *The smoke made me cough. I coughed all night long.* Neutral style – B2.

EXIST [ɪg'zɪst] v. 1. mavjud bo'lmoq: *I don't think ghosts **exist**. Poverty still **exists** in this country.* SYNONYM: to be extant. 2. Arang yashamoq: *Some species **exist** in this small area of forest and nowhere else on earth. to be alive Few people can **exist** without water for more than a week.* SYNONYM: to survive. Neutral style – B2.

SNEEZE [sni:z] v. aksirmoq: *My nose is tickling, I think I'm going to **sneeze**. I keep sneezing - I hope I'm not getting a cold. This pepper is making me **sneeze**.* Neutral style – B2. Bu lug'at shakli har bir ma'noni misol bilan dalillagani sabab sinonimlar qatori ko'rinishidagi tarjimani mukammallashtirish, boyitish yo'llarini ko'rsatadi. Uslub ko'rsatkichi qaysi doirada qo'llash haqida tavsiya bersa, B1-B2 va hokazo chastota belgilari til bilishning qaysi darajasida bu so'zni o'rganish talab etilishini ko'rsatadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Zgusta, L. Translational Equivalence in Bilingual Lexicography Bhukośyam, Dictionaries, vol. 9 (1987): 1-47 (also, abridged, in Hartmann, ed. 1984: 147-159).
2. Irisqulov A., Bo'tayev Sh. Inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha lug'at. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2008.
3. Nazarov S., Nazarova F., Poltayeva D., Adizova N. English-uzbek dictionary. Inglizcha-o'zbekcha lug'at – Toshkent: Niso Poligraf, 2013.